







Jarqo'rg'on va Qumqo'rg'on tumanlarida qishloq xo'jaligi sohasiga bag'ishlangan seminar o'tkazildi




Bugun Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov "Termiz xalqaro savdo markazi" dagi qabuldan so'ng, Jarqo'rg'on va Qumqo'rg'on tumanlariga tashrif buyurdi. Hududlarda ishchi guruhi tomonidan agrar sohada o'tkazilgan o'r ganish natijalari mas'ullar ishtirokida muhokama qilindi.



Seminar tarzida tashkil etilgan muhokamalarda mutaxassislarning paxta va g'alla parvarishini olib borish, o'g'itlash, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish borasidagi tavsiyalari tinglandi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, agrotexnik tadbirlarni mutaxassislar tavsiyasi asosida amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab berildi.



Shundan so'ng, Qumqo'rg'on tumani Bog'aro mahallasida ko'p qavatli turar joylar qurilishi hamda sanoat ipotekasi asosida tashkil etilayotgan "Yoshlar va tadbirdorlik sanoat zonasi" bilan tanishildi. Viloyat rahbari soha mutasaddilari va quruvchilar bilan suhbatda, xonadonlarning narxi qimmatligiga e'tibor qaratdi. Mahalliylashtirilgan, arzon hamda sifatli qurilish materiallaridan foydalangan holda turar joylar tannarxini kamaytirish lozimligi qayd etildi.



Viloyat rahbari loyihalarni amalga oshirish bo'yicha mutasaddilar va quruvchilarga tegishli ko'rsatma va tavslilarini berdi.